



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

PSIXOLOGIYADA ONG VA ONGSIZLIK TUSHUNCHALARI

Yuldasheva Ayjamol Sulaymon qizi,
NMPI, Sirtqi ta'lim bo'limi,
Pedagogika va psixologiya ta'lim
yo'nalishi talabasi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada psixikaning quyi va yuqori bosqichi, ong va ongsizlik tushunchalari, ongning fiziologik mexanizmi atroflicha tahlil qilinadi.*

***Kalit so'zlar:** psixika, ong, ongsizlik, psixikaning quyi darajasi, psixikaning yuqori darajasi.*

Hayvonlar psixikasining paydo bo'lishi va o'sib taraqqiy etgan psixikaning ya'ni faqat insonga xos bo'lgan ongning ilk tarixi arafasi desa bo'ladi.

Ong insonning eng avvalgi, ota-bobosi qurol yasab, mehnat qila boshlagan va shu tufayli ijtimoiy hayot kechira boshlagan paytdan e'tiboran paydo bo'lgan. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishi til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasi, ya'ni bu ijtimoiy mahsuli bo'lib faqat odamlarga xos. Ong psixikani yaxlit tarzda ifodalovchi yuksak shakli ya'ni faqat odamgagina tegishli bo'lib u nutq bilan bog'liq bo'lgan markaziy nerv sistemasi faoliyati hisoblanadi. Ong ijtimoiy tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyat tarkib topishi til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir. Insoniyatning ijtimoiy -tarixiy taraqqiyotda til tufayli aks ettirish (ini'kos qilish) imkoniyatlari qayta qurildi, natijada odam miyasida atrof -muhit timsollari xususiyatlari aniqroq aks eta boshladi. [1]

Inson tug'ilganda ongi bo'lmaydi ammo u o'z ruhiyatining individual xususiyatlariga ega bo'lgan boshqa odamlar bilan aloqa va faoliyat jaroyonida uning ruhiyati taraqqiy topadi va ong shakllanadi. Ongning turli xususiyatlari ichida uning mo'ljal olish (joyda vaqtda tevarak-atrofdagi sharoitda) xususiyati muhim rol o'ynaydi.

Bu o'z-o'zini anglash odamning o'z tanasini, fikrlarining xarakterini, his-tuyg'ularni ijtimoiy ishlab chiqarish sohasidagi o'z mavqeyini anglash deyiladi.

Ongning fiziologik mexanizmi haqida I.P.Pavlov "Ong bosh miya katta yarimsharlari muayyan sohasining ma'lum optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismining hozirgi sharoitda asab faoliyatidir" degan edi. Organizmning ayrim a'zolari o'sadi va takomillashadi, shu a'zolarining sifati o'zgaradi. Organizm o'sish bilan psixik hayot mazmuni va shakllarning taraqqiyoti uchun imkoniyat vujudga keladi, xolos. Umuman odam ongi ijtimoiy tarixiy hayoti sharoitida vujudga kelib, kamol topadi. Inson jamiyatda bolalar ongiga asosan tarbiya va ta'lim yo'li bilan ta'sir ko'rsatadi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŃ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Psixikaning yuqori bosqichi faqat insongagina xos, uning eng yuksak darajasi hisoblanmish ongda o'z aksini topadi. U ijtimoiy mahsuli bo'lishidan tashqari unga muayyan munosabat bildirish, maqsad ko'zlash, o'zlikni anglash kabilarni namoyon etish imkoniyatiga ega. Har qaysi insonda hukm suruvchi "Men" likning "Men emas" likdan ajratishga intilishi o'zini-o'zi takomillashtirish, o'ziga o'zi buyruq berish o'z-o'ziga tasir o'tkazish singari jaroyonlarda "ontogenetik hayotining dastlabki taraqqiyot pallasidan bolalikning ilk daqiqalaridan boshlab, to yetuklik yoki bu bosqichlarni egallash davrigacha davom etib, o'z-o'zini anglashning yuzaga kelishi bilan yakunlanadi. [3].

Insonlardagi ong havyonlarda ham mavjud degan fikrlar ham ilgari surilishi bu juda katta xatodir! Biz hayvon harakatlarini instinkt yoki reflekslar orqali amalga oshadi desak to'g'riroq bo'ladi, chamamda, negaki ularda mustaqil qaror qilish singari xususiyatlarning o'zi yo'q! Hayvonlarning qilayotgan ishlari shartsiz ta'sirlovchilar orqali shakillantirilgan shartsiz reflekslar orqali amalga oshiriladi. Reflekslar - organizmning markaziy nerv sistemasi orqali ichki yoki tashqi muhit omillari ta'siridan retseptorlar qo'zg'alishiga javob reaksiyasi. Zigmund Freydning fikricha ong -psixik faoliyatning oliy shakli bo'lib faqatgina insonga hos omildir. Ong moddiy olamni inson miyasida aks etishi va uning faoliyati asosi deb hisoblashgan. Asosan, ong tushunchasiga kengroq qaralayotgan o'sha vaqtda Zigmund Freyd o'zning "ongsizlik" tushunchasini fanga kiritadi. Zigmund Freyd o'zining uzoq muddatli ish jarayoni mobaynida insonlardagi nervrologik kasalliklar asosan shol va nutqida muamosi bo'lgan bolalarni tashxislash usullarini o'rganganligi bois bevosita ong muamolari bilan ishlay boshlagan. Biz ongli jonzotlarmiz va o'z tanamiz, kechinmalarimizni nerv fiziologik asoslari orqali ongli ravishda boshqara olish qobiliyatiga egamiz[2]

Psixikaning eng quyi darajasi ongsizlikdir. Ongsizlik - bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson xatti-harakatlariga javob bermaydi, anglamaydi. Ongsizlik -bu kishining xuddi ong kabi o'ziga xos psixik qiyofasidirki, u kishi miyasida borliqning yetarli darajada bir xil bo'lmasligi, qisman tarzda inson hayotining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan mexanizmidir. Z. Freyd fikricha ongsizlik:

- tushda;
- bilmay gapirib yuborishda.
- o'zimizdagi tushkunlik va xafachilikni hazil yordamida bartaraf qilishda;
- kinoya gaplarda;
- giptonik yoki sarhush, mast holatlarda ifodalanadi.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

Z.Freydning tabiri bilan aytganda, ongdan siqib chiqarilgan odamning tabiiy instinktlari ong ustida joy topadi. Ichki kasalliklar klinikasida ong to'xtashi (o'chishi) bilan o'tadigan holatlarini uchratish mumkin.

Obnubilatsiya -(lotincha bulut) - ongning buzilishi, ong bir necha soniya qorong'ulashib, kichik- kichik bulutchalar singari yengil suzib yuradi. Somnolensiya (uyquchanlik) uzoq davom etadigan holat. Bu holatda mo'ljal olish o'zgarmaydi, spirtli ichimliklardan uxlatuvchi dori vositalaridan zaharlanganda kuzatiladi[3].

Bundan kelib chiqadiki, anglanmagan jarayonlarni o'rganishda biz xuddi o'sha boshlang'ich ma'lumotlar: ong, xulq-atvor faktlari va fiziologik jarayonlarni qo'llaymiz. Ular majmuasidan foydalanish ruhshunosga «ongsizlik» sohasiga tegishli bo'lgan hodisalarni o'rganish imkonini beradi[4].

Shunday qilib, inson psixikasi juda murakkab bo'lib, o'zida faqatgina ongni emas, balki, sub'ekt tomonidan nazorat qilinmaydigan jarayonlarni ham birlashtiradi. Bu jarayon juda ham ko'p ochilmagan qirralarga egadir va inson uchun ong va ongsizlik tushunchalari hali hamon yechilishi qiyin, ammo qiziq bo'lgan faktorlar yig'indisi bo'lib qolaveradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Umumiy Psixologiya E .G'oziyeva 2002- y.
2. Umumiy Tibbiy Psixologiya Y.M.Fayziyev 2017- y. 24-b
3. Psixologiya Nazariyasi va Tarixi Baratova. Sh.R, Avezov.O.R , Olimov.L.Y 2009-y.
4. S.O. Qodirov International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS 88-91b.